

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDAGI LOGOPEDIK SHAXOBCHALAR FAOLIYATI

Dilnoza Xadjiyeva

O'zMPU "Maxsus pedagogika va inklyuziv talim" Logopediya yo'nalishi
1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida logopedik shaxobchani tashkil etishning pedagogik va tashkiliy asoslari yoritilgan. Logopedik xizmatning maqsad va vazifalari, nutq nuqsonlarini erta aniqlash va bartaraf etish yo'llari, logoped faoliyatini rejalashtirish hamda o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlik masalalari tahlil qilingan. Maqola nutqida buzilishlari mavjud bo'lgan o'quvchilarning ta'lim jarayoniga moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: logopediya, logopedik shaxobcha, nutq nuqsonlari, korreksion ish, maktab ta'limi.

Annotation: This article examines the pedagogical and organizational foundations of establishing a speech therapy unit in general secondary schools. The aims and objectives of speech therapy services, early identification and correction of speech disorders, planning of speech therapist activities, and cooperation with teachers and parents are analyzed. The article contributes to improving the educational adaptation and learning outcomes of students with speech impairments.

Key words: speech therapy, speech therapy unit, speech disorders, corrective work, school education.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические и организационные основы создания логопедического пункта в общеобразовательной школе. Проанализированы цели и задачи логопедической службы, вопросы раннего выявления и коррекции речевых нарушений, планирование деятельности логопеда, а также сотрудничество с учителями и родителями. Материал направлен на повышение эффективности обучения учащихся с речевыми нарушениями.

Ключевые слова: логопедия, логопедический пункт, речевые нарушения, коррекционная работа, школьное образование.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalarda bo'lgani kabi bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimida ham chuqur islohatlar va o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekistonning milliy istiqlolga erishishi, ijtimoiy va siyosiy sohada sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar ta'lim tizimini, jumladan, maktab yoshdagi bolalarga ta'lim tarbiya berish, ularni aqliy, ma'naviy, jismoniy jihatdan rivojlantirish va maktabda sifatli bilim olish jarayonini yangilashni taqazo etmoqda.

«Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz, nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustivor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga kO'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bO'lib, dunyo miqyosida O'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bO'sh kelmaydigan insonlar bO'lib kamol topishi, baxtli bO'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz» - SH.M.Mirziyoyev.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 26 oktyabrda 2722-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Umumiy O'rta ta'lim muassasasi qoshidagi logopediya shoxobchasi to'g'risida" gi Nizomda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida hamda davlatimiz mustaqillikga yo'l tutgani bois butun iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalar bosqichma-bosqich rivojlanish sari yuz tutdi. Xalq ta'limining barkamol shaxs tarbiyasini, malakali mutaxassislar tayyorlashni yuqori va jahon standartlariga mos tarzda amalga oshirish vazifalari va maqsadlari belgilandi. Hayotimizni hal etuvchi muhim masalalari qatorida ta'lim-tarbiya tizmini tubdan o'zgartirish, uni yangi zamon talabi darajasiga ko'tarish, barkamol avlodimiz keljagiga dahldor qonun loyihalari ham bor.

Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir.

Kishilarni mukammal, yetuk inson bo'lib shakllanishida aqliy qobiliyat va nutqiy malakalar katta o'rin tutadi. Bola nutqining shakllanishi uni atrof-muhit bilan yaqinroq tanishishiga asos bo'ladi. Tor ma'noda nutq – til normalarini egallamoq, ya'ni talaffuz, urg'u, so'z ishlatishni, gap tuzish qonunularini yaxshi bilmoq, shuningdek tilning tasviriy vositalaridan har xil sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq foydalana olish, ifodali o'qish madaniyatini egallash demakdir.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning ko'p foizi maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatilar ekan, hamda bu kamchilik maxsus pedagogik aralashuvsiz o'z-o'zidan yo'qolib ketmaydi, balki bu kamchiliklar maktabgacha yoshda bartaraf etilmasa kichik maktab yoshda ham namoyon bo'ladi degan xulosa keladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutq rivoji jarayoni lingvistik, psixologik va pedagogik omillar bilan belgilanadi. Bu yoshda bola nafaqat yangi so'zlar va grammatik qoliplarni o'zlashtiradi, balki nutqiy tafakkur — ya'ni til orqali fikrlash mexanizmlarini shakllantiradi. Shu bois nutq rivoji shunchaki til birliklarini yod olish emas, balki fikrning mazmunli, izchil va maqsadga yo'naltirilgan tarzda ifoda etilishiga xizmat qiladigan murakkab kognitiv faoliyatdir. Nutq rivoji jarayonida bola atrof-muhitdagi ma'lumotlarni tahlil qiladi, ularni og'zaki shaklda qayta tuzadi, o'z nuqtai nazarini bildiradi, hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiradi va muloqot jarayoniga faol kirishadi. Bu esa uning ijtimoiy faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi, muloqot madaniyati va o'ziga ishonchini shakllantiradi. Nutq rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga bolaga boy til muhitining yaratilishi, tinglab

tushunishga oid mashqlar, hikoya qilish, rolli o'yinlar, dialog va monolog shaklidagi nutq faoliyati, kitob o'qish, so'z bilan ishlash mashqlari, lug'at boyligini kengaytirishga qaratilgan interaktiv metodlar kiradi.

Nutq rivoji bilan og'zaki nutq ko'nikmalari o'zaro uyg'un holda shakllanadi: og'zaki nutq ko'nikmalari rivojlangan bola o'qish va yozuv jarayonini yengil o'zlashtiradi, matnlar ustida ishlashda faol bo'ladi, mazmuni tushunish, hikoya tuzish, voqealarni izchillikda bayon etish, savol-javob asosida muloqot qurish kabi o'quv kompetensiyalarni tez egallaydi. Agar nutq rivoji sust bo'lsa, bu o'quvchining umumiy o'quv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi: fikrni izchil aytish, tushunish, matnni tahlil qilish qiyinlashadi, shu sababli o'qituvchining nutqni rivojlantirish bo'yicha maqsadli metodlar qo'llashi juda muhimdir. Og'zaki nutqni rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar orqali bola aniq talaffuzga ega bo'ladi, so'z boyligi ortadi, muloqotga bo'lgan ishonchi kuchayadi, fikrlar ketma-ketligini izchil shakllantiradi, nutqiy mantiqni mustahkamlaydi va kommunikativ kompetensiyalarini to'liq shakllantira oladi. Shu tariqa og'zaki nutq ko'nikmalari va boshlang'ich sinf o'quvchilari nutq rivoji o'zaro uyg'unlashgan holda bola shaxsining intellektual, ijtimoiy va nutqiy rivojlanishining poydevorini yaratadi.

Hozirgi kunda umumta'lim maktablarda o'quvchilarning nutqida uchraydigan kamchiliklar – tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish, lug'at boyligining yetarli emasligi, bog'langan nutqning sust rivojlanishi, yozma va og'zaki nutqdagi buzilishlar ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli maktablarda logopedik shaxobchalarni tashkil etish dolzarb pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Logopediya shoxobchasi maktablarda har yili shakllantiriladigan logoped yordamiga muhtoj bolalar ro'yxatiga asosan xalq ta'limi tuman (shahar) bo'limi mudirining buyrug'i bilan tashkil etiladi. Bunda har bir logopediya shoxobchasiga bir yoki bir nechta yaqin masofada joylashgan umumta'lim muassasalari birlashtiriladi. Bir nechta umumta'lim muassasalari birlashtirilgan logopediya shoxobchasi uning uchun joy ajratish imkoniyatiga ega bo'lgan hamda boshqa umumta'lim muassasalariga qatnash uchun qulay joylashgan umumta'lim muassasasida tashkil etiladi.

Logopediya shoxobchasida o'qituvchi-logoped lavozimida oliy ma'lumotli o'qituvchi-logopedlar va defektologlar faoliyat yuritishi mumkin.

Logopedik shaxobchaning maqsadi va vazifalari

Logopedik shaxobchaning asosiy maqsadi – nutqida turli nuqsonlari mavjud bo'lgan o'quvchilarga o'z vaqtida yordam ko'rsatish, ularning to'laqonli ta'lim olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdir.

Asosiy vazifalari:

- o'quvchilar nutqidagi nuqsonlarni aniqlash va tashxislash;
- individual va guruhli logopedik mashg'ulotlar tashkil etish;
- nutq kamchiliklarini bartaraf etish bo'yicha korreksion ishlar olib borish;
- o'qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlikda maslahatlar berish;
- yozma nutq (disgrafiya, disleksiya) buzilishlarining oldini olish.

Logopedik shaxobchani tashkil etish shartlari

Logopedik shaxobcha maktab rahbariyati tashabbusi va tegishli me'yoriy hujjatlar asosida tashkil etiladi. Shaxobcha faoliyati uchun quyidagi shartlar muhim hisoblanadi:

alohida, tinch va yorug' xona ajratilishi;

logopedik o'yinlar, ko'rgazmali qurollar, oynalar, kartochkalar bilan jihozlanishi;

nutqni rivojlantiruvchi texnik vositalar mavjudligi;

malakali logoped mutaxassis bilan ta'minlanishi.

Logoped ishining tashkil etilishi

Logoped ish faoliyatini yillik va oylik reja asosida olib boradi. Mashg'ulotlar individual va kichik guruhlar shaklida tashkil etiladi. Har bir o'quvchi uchun logopedik karta yuritilib, unda tashxis, mashg'ulotlar mazmuni va natijalar qayd etiladi. Mashg'ulotlar jarayonida: artikulyatsion mashqlar, fonematik eshituvni rivojlantirish, lug'at ustida ishlash, bog'lanishli nutqni rivojlantirish mashqlari olib boriladi.

Maktabda logopedik shaxobchani tashkil etish o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini ta'minlash, ularning o'qish jarayonidagi qiyinchiliklarini kamaytirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga xizmat qiladi. Logopedik yordamning o'z vaqtida ko'rsatilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Hamkorlik va profilaktika ishlari Logopedik shaxobcha samaradorligi o'qituvchilar, psixolog va ota-onalar bilan hamkorlikka bog'liq. Ota-onalar uchun tushuntirish ishlari, seminarlar va maslahatlar tashkil etilishi nutq buzilishlarining erta oldini olishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-sentabrdagi "Inklyuziv ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–5260-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015 yil 26 oktyabrda 2722-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Umumiy O'rta ta'lim muassasasi qoshidagi logopediya shoxobchasi to'g'risida" gi Nizom
4. Karimova V.M. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019.
5. Sattorova G.Jo'rayeva N. Defektologiya asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
6. Abdullayeva M.A. Logopediya va maxsus pedagogik amaliyot. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2022.
7. Ainscow, M. Understanding the Development of Inclusive Education. – London: Routledge, 2016.

8. UNESCO. Inclusive Education: Guidelines for Policy Makers. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Maxsus ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2022
10. Asqarov, D. (2022). In Particular Of Amiry's Composition Of Navai's Ghazal. European Scholar Journal, 3(12), 34-36.
11. Dilmurod, A. (2025). National Idea Issues in Modern Filmodramaturgy (On the Example of Erkin A‘zam’s Film Dramas). American Journal of Philological Sciences, 5(05), 370-374.
12. Dilmurod, A. (2025). Ideological and Artistic Characteristics of The Work “A Farewell to Arms”. American Journal of Philological Sciences, 5(04), 283-286.
13. Asqarov, D. (2025). ADABIYOT FANINI O ‘QITISHDA STEAMNI JORIY ETISH. University Research Base, 519-524.
14. Asqarov, D. (2025). G‘OYA, MAVZU VA MA‘NO MUSHTARAKLIGI. University Research Base, 350-360.
15. Asqarov, D. (2024). AMIRIY LIRIKASIDA NAVOIYGA MUXAMMASLAR. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 3(12), 87-93.
16. Asqarov, D. (2022). Mukhammas form in the lyrics of Uvaysi. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(09), 5-9.
17. Asqarov, D. (2022). MUKHAMMAS FORM IN THE LYRICS OF UVAYSI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(09), 5-9.
18. Asqarov, D. (2023). AMIRIYNING NAVOIYGA MUXAMMASI. Academic research in educational sciences, 4(Conference Proceedings 1), 101-105.
19. Asqarov, D. (2026, February). SULTONXON TO ‘RA ADO IJODIDA NAVOIY AN‘ANALARI. In Conferences (Vol. 2, No. 1, pp. 165-172).